

FARG'ONA VODIYSI VILOYATLARIDA SHAKLLANGAN MAVSUMIY REKREATSIYA HUDUDIY TIZIMLARI

Hamdamov Eldorbek Doniyorjon o'g'li

*O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiy va
ijtimoiy geografiya kafedrasida tayanch doktoranti*

E-mail: hamdamoveldorbek8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi mavsumiy rekreatsiya tizimlarining fasllar davomida amalga oshishi, mavsumiy rekreatsiya uchun qulay davrning asosiy komponentlari aks ettirilgan. Shu bilan birga, Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi asosiy eng ko'p tashrif buyuriladigan dam olish maskanlari haqida ma'lumotlar ham berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mavsumiy rekreatsiya tizimlari, «Chodak» dam olish maskani, «Xo'jand» darvozasi, G'ovasoy daryosi, Komfort zona.

Farg'ona vodiysi geografik jihatdan O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida, G'arbiy Tyanshan tog'lari tarkibiga kiruvchi Turkiston, Oloy, Farg'ona, Chotqol, Qurama tog'larining oralig'idagi tektonik botiqda joylashgan. Vodiyning umumiy maydoni 78 ming km² bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari joylashgan hudud 19,3 ming km²ni tashkil etadi. Vodiyning qolgan qismida, g'arb tomonda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janubiy va janubi-sharqiy tomonda Qirg'iziston Respublikasining Botkend, O'sh, Jalolobod viloyatlari joylashgan.

Farg'ona vodiysi hududi 3 ta davlat hududiga taqsimlanib, vodiyning 23% qismi O'zbekiston Respublikasiga, 68 % maydoni Qirg'iziston Respublikasiga va 9% maydoni Tojikiston Respublikasiga tegishlidir.

Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismi tabiiy jihatdan Farg'ona tabiiy geografik okrugi deb ataladi. Farg'ona okrugini janubdan Turkiston, Oloy tog' tizmalari, sharqdan Farg'ona va Oto'ynoq tog' tizmalari, shimoldan Chotqol, shimoli-g'arbdan Qurama va Qoramozor tog' tizmalari, g'arbdan Mo'g'ultog' tog' tizmalari o'rab turadi, faqat g'arb tomondan okrug torgina (8-9 km) «Xo'jand» darvozasi orqali Dalvarzin va Mirzacho'l tekisliklari bilan tutashib ketadi.

Farg'ona vodiysining uzunligi g'arbdan sharqqa 370 km, o'rtacha kengligi 80-100 km, eng keng joyi esa sharqiy qismida bo'lib, 150 kmga yetadi.

Farg'ona vodiysi ulkan rekreatsiya imkoniyatlariga ega, okrugda 60 ga yaqin rekreatsion zonalar mavjud bo'lib, ular asosan, daryo va soylar bo'yida, buloqlar otilib chiqqan qadimgi ziyoratgoh va qadamjolarlar yaqinida va adirlarda joylashgan. Eng yirik maskanlarga «Chodak», «Nanay», «Bog'i Bobur», «Satkak ota», «Yetti buloq»,

«Chust», «Shirmonbuloq», «Chimyon», «Shohimardon» va boshqa dam olish maskanlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Farg'ona vodiysi iqlimi mo'tadil kontinental iqlim bo'lganligi uchun to'rt faslning almashinishi yaqqol ifodalanadi. Vodiy viloyatlarining hududiy rekreatsiya tizimlari mavsumiyliigi ham yil fasllariga ya'ni haroratning o'zgarishiga bog'liq. Vodiy viloyatlarining iqlimi quruq, yozi issiq, qishi mo'tadil bo'lib, ba'zan, qish oylarida harorat keskin sovib ketib -30°C , -31°C ga tushib ketadi. Okrugda bahor qisqa bo'lib, ob havo tez-tez o'zgarib, goh isib, goh sovib ketadi. Harorat ba'zan aprel oylarida $+27^{\circ}\text{C}$, $+36^{\circ}\text{C}$ gacha ko'tarilsa, ba'zan qishda, -3°C , -5°C gacha pasayib ketishi mumkin. Bahorda oxirgi sovuq tushadigan kunlar 1-aprelgacha (Quvada) davom etadi.

May oyining ikkinchi yarmidan boshlab, havo isib ketadi, yog'in miqdori keskin kamayadi, haqiqiy issiq va quruq yoz fasli boshlanadi. Farg'ona okrugida yoz issiq, (iyulning o'rtacha harorati $26-27^{\circ}\text{C}$), maksimum harorat $+40^{\circ}\text{C}$, $+42^{\circ}\text{C}$ bo'lib, uzoq vaqt davom etadi. Vegetatsiya davri 235-240 kun, ijobiy haroratlarning yig'indisi 4000 – 4800⁰, Yil davomida quyosh 2550-2800 soat nur sochib turadi. Summar quyosh radiatsiyasi yiliga 150 kkal/sm² atrofida bo'lib yuqoriga chiqqan sari ortib boradi va 4000 m balandlikda 170 kkal/sm² atrofida bo'ladi. Bu esa okrugda paxta kabi texnika ekinlarining, anor, anjir kabi subtropik o'simliklarning o'sishi uchun qulay imkoniyat beradi. Bir yilda faqat 50-62 kun davomida harorat 0°C dan past bo'ladi. Atmosfera sirkulyatsiyasi qish oylarida Sibir antisikloni ta'sirida bo'lib, kam bulutli bo'ladi.

Farg'ona okrugida kuz fasli o'rtacha haroratning sezilarli (oktyabrda o'rtacha harorat $12-13^{\circ}\text{C}$ atrofida) pasayishi, bulutli kunlarning tez – tez takrorlanib yog'inlarning bo'lib turishi bilan tavsiflanadi. Kuzning ikkinchi yarmidan harorat keskin pasayadi va birinchi kuzgi sovuq tushishi (o'rtacha) 15-17-oktyabrlardan boshlanadi. Okrugda o'rtacha yog'in miqdori 98-226 mm ni tashkil qiladi.

Farg'ona vodiysi katta suv resurslariga ham ega bo'lib, daryolar, asosan, vodiyni o'rab turuvchi tog'lardan boshlanadi. Eng yirik daryolari Norin, Qoradaryo, Sirdaryo kabi daryolardir. Vodiy janubidagi daryolar Turkiston va Oloy tog' tizmalaridan boshlanib, Xo'jabaqirg'on, Isfara, So'x, Shohimardonsoy, Isfayramsoy, Aravonsoy, Oqbura, Qurshob kabi daryolar kiradi.

Shimoldan va shimoli-g'arbdan boshlanuvchi daryolar Qurama va Chotqol tog'laridan boshlanadi. Bu daryolarga G'ovasoy, Kosonsoy, Pochchaota, Sumsarsoy, Qorasuv, Chodaksoy daryolari kiradi.

Boshqa Yassi, Kugart, Qorao'ngur, Moylisuv daryolari esa Farg'ona tizmasining g'arbiy yonbag'ridan boshlanadi. Ushbu daryolar vodiy viloyatlarida katta rekreatsion resurslarni paydo bo'lishiga zamin yaratgan, sababi, vodiydagi eng yirik dam olish maskanlari daryo va soylar bo'yida joylashgan.

Rekreatsiya faoliyati mavsumiy jihatdan ikki turga bo'linadi, ya'ni, yozgi va qishki rekreatsiya mavsumi. Qishki rekreatsiya mavsumi vodiy viloyatlari relyefi

chang'I sportining rivojlanishiga imkoniyat bermaydi, shu sababli, qishki rekreatsiya faoliyati okrugda yaxshi tashkil etilmagan.

Yil fasllarining o'zgarishi dam olishni optimal iqlimiy sharoitga o'tishiga ta'sir etadi. Inson organizmi uchun optimal iqlimiy haroratga ega bo'lgan hududlar "Komfort zona" deb ham ataladi.

"Komfort zona" tushunchasi - ko'p odamlar uchun 17°C dan 23°C gacha bo'lgan havo harorati tushuniladi. Shu bilan birga, konfort zonasi insonning sog'ligi holatiga, doimiy yashash joyidan masofaga, yil fasliga va boshqalarga qarab juda katta farq qilishi mumkin. Komfort zonadan tashqarida inson o'zini sovuq yoki issiqdan lohas bo'lgandek his qilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan "komfort zona" uchun belgilangan havo harorati asosan shimoliy o'lkalarda yashovchi aholi uchun belgilangan bo'lib, bizning mintaqa aholisi uchun bu havo harorati sovuqlik qiladi. O'zbekiston shu jumladan, Farg'ona vodiysi uchun rekreatsiyada optimal harorat +25°C, +27°C ekanligi belgilangan bo'lib, vodiylarida bunday harorat may-iyun oylarida tog' va adirlarda kuzatiladi. Inson organizmi uchun optimal bo'lgan shamol tezligi sekundiga 2,5 – 3 m etib belgilangan. Vodiylar tog' va adirlarida rekreatsiya uchun optimal shamol tezligini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B. Eraliyev, I. Ostonaqulov, N. Abdulahatov. "O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. Farg'ona viloyati" T.: "Turon Zamin Ziyosi", 2014.
2. Holiqov Farg'ona vodiysi monografiyasi.
3. Nigmatov Asqar Nigmatullaevich, Tobirov Odiljon Qobiljon O'g'li. "Natural Geographical Features Of Geographical Tourism In The Fergana Valley As A Part Of Uzbekistan"
4. P. Baratov «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» T.: "O'qituvchi nashriyoti", 2011.
5. К.Н. Пружинин, М.В. Пружинина «Физическая рекреация как междисциплинарная область физкультурного образования». Иркутск. 2011.